



INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

2-jild
2-son
fevral, 2026

February, 2026
Volume 2
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nizamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



MINTAQAVIY IQTISODIYOT RIVOJIDA TRANSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Rajabaliyeva Iroda Alisherovna

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНО- ЛОГИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ

Раджабалиева Ирода Алишеровна

THE SIGNIFICANCE AND ROLE OF TRANSPORT AND LOGISTICS INFRASTRUCTURE IN REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT

Rajabaliyeva Iroda Alisherovna

Received: February 6, 2026 Revised: February 10, 2026 Accepted: February 16, 2026 Published: March 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda transport-logistika infratuzilmasining strategik ahamiyati tadqiq etiladi. Infratuzilma loyihalarining yalpi hududiy mahsulot o‘shishiga ta’siri, transport xarajatlarini kamaytirish va investitsiya jozibadorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida infratuzilma loyihalarining mintaqaviy o‘shish drayveri sifatidagi roli, xarajatlarni optimallashtirish va investitsiya jozibadorligini oshirishdagi ta’siri statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2025–2026-yillardagi yangilangan qonunchilik bazasi, xususan, logistika markazlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: transport tizimi, logistika infratuzilmasi, rivojlanish muammolari, iqtisodiy integratsiya, raqamli transformatsiya, transport xarajatlari, infratuzilma loyihalari, hududiy rivojlanish

Аннотация: В данной статье исследуется стратегическое значение транспортно-логистической инфраструктуры в развитии региональной экономики. Проанализировано влияние инфраструктурных проектов на рост валового регионального продукта, а также вопросы снижения транспортных издержек и повышения инвестиционной привлекательности. В ходе исследования на основе статистических данных раскрыта роль инфраструктурных проектов как драйвера регионального экономического роста, их влияние на оптимизацию затрат и усиление инвестиционной привлекательности. Кроме того, проанализирована обновлённая нормативно-правовая база Республики Узбекистан на 2025–2026 годы, в частности нормативные документы, регулирующие деятельность логистических центров.

Ключевые слова: транспортная система, логистическая инфраструктура, проблемы развития, экономическая интеграция, цифровая трансформация, транспортные издержки, инфраструктурные проекты, региональное развитие

Abstract: This article examines the strategic importance of transport and logistics infrastructure in the development of the regional economy. The impact of infrastructure projects on the growth of gross regional product, as well as issues related to the reduction of transport costs and the enhancement of investment attractiveness, are analyzed. Based on statistical data, the study identifies the role of infrastructure projects as a driver of regional economic growth, their contribution to cost optimization, and their effect on increasing investment attractiveness. Furthermore, the updated legislative framework of the Republic of Uzbekistan for 2025–2026, particularly the regulatory documents governing the activities of logistics centers, is analyzed.

Keywords: transport system, logistics infrastructure, development challenges, economic integration, digital transformation, transport costs, infrastructure projects, regional development.

■ KIRISH



O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri transport va logistika tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, transport va logistika milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini bir-biri bilan bog'laydi, ichki va tashqi savdo aylanmasini tezlashtiradi, eksport imkoniyatlarini kengaytiradi va aholining farovonligini oshiradi. Shu boisdan, mamlakatimizda transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va uning xalqaro standartlarga mos rivojlanishini ta'minlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mintaqalarning raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish quvvati bilan, balki "mobillik" darajasi bilan belgilanmoqda. Transport-logistika infratuzilmasi iqtisodiyotning "qon tomirlari" hisoblanib, u tovar va xizmatlarning erkin harakatlanishini, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishni va hududlarning tashqi bozorlarga integratsiyalashuvini ta'minlaydi. O'zbekiston kabi dengiz yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakat uchun mintaqaviy logistika xablarini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning asosiy shartidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillardagi farmon va qarorlarida transport sohasini isloh qilish nafaqat texnik modernizatsiya, balki mintaqaviy iqtisodiy o'sishning institutsional asosi sifatida ko'rilmog'da. Mamlakatimizning geografik "landlocked" (dengizga chiqish yo'li yo'qligi) holatini hisobga olgan holda, samarali logistika tizimi tashqi savdo aylanmasining barqarorligini ta'minlovchi asosiy omildir. O'zbekistonning ushbu sohada huquqiy bazasi 2025-2026 yillarda tubdan yangilandi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi transport xizmatlari eksportini 3 barobarga oshirishning huquqiy asosi sifatida xizmat qiladi [1]. Prezidentning 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son qarori bilan "Transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Unda ilk bor professional 3PL (uchinchi tomon logistikasi) operatorlarini soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish mexanizmi joriy etildi [2]. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-oktabrdagi 633-son qarorida esa logistika markazlari reyestri va ularning faoliyatini reyting asosida baholash tartibi belgilandi, bu esa sohada shaffoflikni oshiradi [3].

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqaviy iqtisodiyot va transport bog'liqligi uzoq vaqtdan beri ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. A.Marshall o'zining "sanoat tumanlari" nazariyasida transport xarajatlarining pasayishi hududiy ixtisoslashuvni kuchaytirishini ta'kidlagan [4]. M.Percoco tadqiqotlariga ko'ra, transport infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar hududiy integratsiya va atrof-muhit barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [5]. Gibbons va boshqalar transport loyihalarining mintaqaviy unumdorlikni 10-15% gacha oshirishini isbotlashgan [6].

Mahalliy olimlardan K.Karimov institutsional modernizatsiya logistika bozori raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili ekanligini qayd etgan [7].

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash usullaridan foydalanildi. O'zbekistonning LPI (Logistics Performance Index) reytingidagi o'rni va uning mintaqalar bo'yicha taqsimlanish ko'rsatkichlari dinamik tahlil qilindi. 2021–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonning ayrim mintaqalarida yuk tashish hajmi va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari dinamikasi o'rganildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashuv sharoitida mintaqalarning iqtisodiy o'sishi nafaqat ishlab chiqarish quvvatlariga, balki ishlab chiqarilgan mahsulotni iste'molchiga etkazib berish tezligi va tannarxiga ham bog'liq.

Transport-logistika infratuzilmasi — bu yo'llar, temir yo'llar, aeroportlar, logistika markazlari va axborot tizimlarining majmuasi bo'lib, u mintaqalararo va xalqaro iqtisodiy aloqalarni bog'lovchi asosiy bo'g'indir.

Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya sharoitida transport-logistika tizimi hududiy rivojlanishning "magistral yo'nalishi" hisoblanadi. Mintaqalararo iqtisodiy aloqalarning samaradorligi bevosita logistika zanjirining qay darajada optimallashtirilganiga bog'liq. O'zbekiston uchun geografik joylashuvdan kelib chiqqan holda, transport xarajatlarini kamaytirish milliy mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi hal qiluvchi omildir. So'nggi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari logistikani shunchaki xizmat ko'rsatish sohasi emas, balki iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi drayver soha sifatida belgiladi.

Vazirlar Mahkamasining 633-son qarori talabiga ko'ra, endilikda transport-logistika markazlari aholi punktlaridan tashqarida, ammo magistral yo'llardan 3 km dan uzoq bo'lmagan masofada joylashishi shart. Ushbu norma mintaqalarda er uchastkalaridan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, qonunchilikdagi yangilik — xalqaro yuk tashishda transport-ekspeditorlik xizmatlariga QQSning nol stavkada qo'llanilishi — mintaqaviy logistika kompaniyalarining aylanma mablag'larini 12-15% ga tejash imkonini beradi. Transport infratuzilmasi mintaqaviy iqtisodiyotiga quyidagi yo'nalishlar orqali ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- Tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish orqali sifatli yo'llar va zamonaviy logistika markazlari mahsulot etkazib berish vaqtini va transport xarajatlarini 15-20% gacha qisqartirishi mumkin.

- Bozor ko'lamini kengaytirish orqali infratuzilma rivojlangan joyda tadbirkorlar o'z mahsulotlarini uzoqroq masofalarga sifatli etkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

- Investitsion jozibadorlik orqali investorlar loyihani joylashtirishda birinchi navbatda xomashyo va tayyor mahsulot logistikasi qulayligiga e'tibor qaratishadi.

Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, transport infratuzilmasiga kiritilgan har 1 birlik investitsiya bilvosita boshqa tarmoqlarda 1.5 dan 2.5 birlikkacha qo'shimcha qiymat yaratadi.

O'zbekiston kabi dengiz yo'llaridan uzoqda joylashgan davlatlar uchun transport-logistika



infratuzilmasi hayotiy ahamiyatga ega. “Bir makon, bir yo‘l” loyihasi va Trans-afg‘on temir yo‘li kabi tashabbuslar O‘zbekiston hududlarini xalqaro tranzit xabiga aylantirishni maqsad qilgan. Logistika samaradorligi indeksi (LPI) past bo‘lgan mintaqalarda mahsulot tannarxining 30% gacha bo‘lgan qismi aynan transport xarajatlariga to‘g‘ri keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 8-10% ni tashkil etadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi bevosita yuk

aylanmasining o‘shishiga va o‘z navbatida YHM o‘shishiga xizmat qiladi (1-jadval).

Ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, logistika markazlari sonining ortishi mahsulot tannarxidagi transport xarajatlarini 22% dan 16% gacha tushirish imkonini bergan [8]. Bu esa mahalliy mahsulotlarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini 6-8% ga oshiradi.

1-jadval.

O‘zbekistonda yuk tashish hajmi va logistika samaradorligi ko‘rsatkichlari (2021-2024 yillar kesimida)[7]

Ko‘rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	O‘shish sur‘ati (%)
Jami yuk tashish (mln tonna)	1,180	1,250	1,420	1,510	+28%
Logistika markazlari soni	22	28	35	42	+90%
Avtomobil yo‘llari zichligi (km/1000 km ²)	95.4	97.2	102.5	108.1	+13%
Logistik xarajatlarning mahsulot tannarxidagi ulushi	22%	20%	18%	16%	-6%

Mamlakatda transport-logistika tizimini jadal rivojlantirish, transport infratuzilmasini yaxshilashga investitsiyalarni jalb qilish, yuk tashishlar bozorida sog‘lom raqobat muhitini yaratish borasida qator izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qaroriga ko‘ra, O‘zbekistonning transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi va asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar va indikatorlar belgilandi. Jumladan: avtomobil, temir yo‘l va havo transportida xalqaro yuk tashish umumiy hajmini kamida 2 baravarga oshirish, transport va logistika xizmatlari eksportini 2 baravargacha oshirish, konteynerlarda yuk tashish ulushini kamida 1,5 barabarga oshirish, Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida (LPI) O‘zbekistonning

o‘rnini 55-pog‘onadan past bo‘lmagan darajagacha ko‘tarish belgilandi (2-jadval).

Shu bilan birga 2025-yil 1-iyundan boshlab chegara punktlarida elektron navbat tizimi to‘liq joriy etilishi belgilangan. Bu esa mintaqalararo yuk oqimini tartibga solish va “korruptsiya omillar”ni kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, infratuzilmaning rivojlanishi “multiplikativ samara” beradi. Ya‘ni, transport tarmog‘ining kengayishi nafaqat haydovchilar uchun ish o‘rni yaratadi, balki:

1. Sanoat aglomeratsiyasini rag‘batlantiradi (yo‘l bo‘yida servis va ishlab chiqarish zonalarini paydo bo‘ladi).

2. Eksport diversifikatsiyasini ta‘minlaydi (tez buziladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etkazish muddati qisqaradi).

3. Investitsion oqimni tezlashtiradi (DXSh loyihalari asosida aeroport va pullik yo‘llar qurilishi).

2-jadval.

Transport-logistika tizimini rivojlantirishning maqsadli indikatorlari (2025–2030 yy.) [8]

Indikator nomi	2024-yil (joriy)	2030-yil (maqsad)	Kutilayotgan natija
Xalqaro yuk tashish hajmi	1.5 mlrd t.	3.0 mlrd t.	2 barobar o‘shish
Konteynerlash darajasi	12%	18-20%	Eksport operativligi
Logistika samaradorligi (LPI)	100+ o‘rin	55-o‘rindan yuqori	Xalqaro jozibadorlik
3PL xizmatlar ulushi	5%	15%	Professional outsorsing

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, PQ-28-sonli qaror ijrosi doirasida joriy etilgan “Yashil yo‘lak” va “Elektron navbat” tizimlari chegara-bojxona punktlaridagi o‘tkazish qobiliyatini 35% ga oshirgan. Biroq, mintaqalarda infratuzilma notekis taqsimlangan.

Masalan, Navoiy va Toshkent viloyatlarida logistika xablari yuqori texnologik darajada bo‘lsa, Surxondaryo va Qoraqalpog‘iston kabi chekka hududlarda omborxona xo‘jaligi hali ham 1PL yoki 2PL (oddiy saqlash) darajasida qolmoqda.



O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, logistika infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar mintaqaviy HYM o'sishiga multiplikativ ta'sir ko'rsatmoqda (3-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, logistika markazlari maydonining kengayishi va professional operatorlarning bozorga kirishi yuk tashish tannarxini o'rtacha 14.4% ga

kamaytirish imkonini bergan. Bu esa bevosita hududiy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshiradi [9].

Vazirlar Mahkamasining 633-sonli qarori talablariga ko'ra, endilikda har bir logistika markazi raqamli boshqaruv tizimiga ega bo'lishi shart. Bu talab kichik korxonalarni birlashishga yoki modernizatsiya qilishga majbur qilmoqda, bu esa uzoq muddatda sohaning institutsional mustahkamlanishiga olib keladi.

3-jadval.

Transport-logistika samaradorligining mintaqaviy ko'rsatkichlarga ta'siri (2023-2025 yy. tahlili)[9]

Ko'rsatkich nomi	2023-y	2024-y	2025-y (prognoz)	O'zgarish (%)
Logistika markazlari umumiy maydoni (ming kv.m)	850	1,200	1,650	+94.1%
Yuk tashish tannarxi (1 t/km uchun, so'mda)	450	410	385	-14.4%
Eksport tovarlarini etkazib berish vaqti (kun)	12.5	9.8	7.5	-40%
Logistika sohasidagi yangi ish o'rinlari (ming kishi)	45.2	68.0	92.5	+104%

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistondagi transport-logistikaga oid huquqiy islohotlar shuni ko'rsatadiki, davlat endilikda faqat yo'l qurilishi bilan cheklanmay, balki butun ta'minot zanjirini (supply chain) raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishni maqsad qilgan. Mintaqaviy rivojlanish bevosita ushbu huquqiy normalarning joylardagi ijrosi va "yashil logistika" tamoyillarining joriy etilishiga bog'liq.

Mintaqaviy iqtisodiyotni transport-logistika orqali jadal rivojlantirish uchun quyidagilar maqsadga muvofiq:

➤ Mintaqaviy ixtisoslashuv: Har bir hududning eksport salohiyatidan kelib chiqib, ixtisoslashgan (masalan, Farg'ona vodiysida agro-logistika, Navoiyda sanoat-logistika) markazlarini qurish.

➤ DXSh mexanizmi: Pullik yo'llar va terminal qurilishida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ko'paytirish (PQ-28-sonli qaror talablari asosida).

➤ Kadrlar tayyorlash: 3PL va 4PL logistika darajasida ishlay oladigan mutaxassislarni mintaqaviy oliygochlarda tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, transport-logistika infratuzilmasi shunchaki xizmat ko'rsatish sohasi emas, balki mintaqaviy iqtisodiyotning o'sish nuqtalarini harakatga keltiruvchi drayver hisoblanadi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Rajabaliyeva Iroda Alisherovna Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistenti / Раджабалиева Ирода Алишеровна, докторант Каршинского государственного технического университета, ассистент в Университете экономики и педагогики /

Rajabaliyeva Iroda Alisherovna, basic doctoral student at Karshi State Technical University, assistant at the University of Economics and Pedagogy

E-mail: irodaalisherovna820@gmail.com

ORCID: 0009-0002-0776-7186

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 633-son qarori.

3. Marshall, A. Principles of Economics. London: Macmillan. 1890.

4. Percoco, M. Transport Infrastructure and Regional Development. Journal of Economic Geography, 24(2), 112-128. 2024.

5. Gibbons, S., et al. The Impact of New Transport Infrastructure on Regional Productivity. Journal of Urban Economics, 122, 1033-1045. 2021.

6. Karimov.K Logistika xizmatlari bozorini institutsional modernizatsiyalash. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali, №4. 2021.

7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Budjetnoma 2025. Toshkent, 2024.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz